



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



EKOLOGIK TARBIYA MAKTABGACHA YOSHDAKI BOLALAR TARBIYASINING MUHIM OMILI SIFATIDA

ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР ОБРАЗОВАНИЯ ДОШКОЛЬНЫХ ДЕТЕЙ

ECOLOGICAL EDUCATION AS AN IMPORTANT FACTOR IN THE EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN

Xushvaqtova Gulxay Salimjon qizi

Mirishkor tumani 5-DMMT tarbiyachisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim tashkiloti turli yosh guruhlarida tabiat bilan tanishtirishning xilma-xil shakllarda: mashg'ulotlarda, ekskursiyalarda, kundalik hayotda, kuzatishlarda, suhbatlarda, hamda mehnatda ekologik tarbiyani amalgam oshirish, ekologik tarbiyaga oid bilimlar bilan qurollantirish mazmuni yoritilgan.

Аннотация: В статье описывается содержание природоведческого образования в различных формах дошкольного образования в разных возрастных группах: занятия, экскурсии, повседневная жизнь, наблюдения, беседы, а также реализация экологического просвещения на работе, оснащая их знаниями экологического просвещения.

Annotation: V state opisbivaetsya soderjanie prirodovedcheskogo obrazovaniya v razlichnykh formax doshkolnogo obrazovaniya v razmix vozrastnykh gruppax: zanyatiya, ekskursii, povsednevnyaia jizn, nablyudeniya, besedny, a takje realizatsiya ekologicheskogo prosvescheniya na rabote, osnaçhaya ix znaniyami ekologicheskogo prosvescheniya.

Kalit so'zlar: Ekologiya, tabiat, atrof muhit, ekologik madaniyat, ekologik ong, ekologik ta'lim, ekskursiya, mashg'lot, kundalik hayot, suhbat, kuzatish, tarbiyachi, bolalar, bilim, ma'sulyat, salbiy oqibat

Ключевые слова: Экология, природа, окружающая среда, экологическая культура, экологическое сознание, экологическое образование, экскурсия, род занятий, повседневная жизнь, беседа, наблюдение, воспитатель, дети, знания, ответственность, негативные последствия.

Key words: ecology, nature, environment, ecological culture, ecological consciousness, ecological education, excursion, occupation, daily life, conversation, observation, educator, children, knowledge, responsibility, negative consequences.

Ma'lumki, Respublikamizda "Uzluksiz ekologik ta'lim konsepsiysi" yaratilgan. Mazkur konsepsiya ko'ra, maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalariga ekologik ta'lim-tarbiyaning oddiy elementlari beriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalar atrof-muhit bilan qanday muloqotda bodishlari zarurligini, issiq-sovuq, yorugdik-qorong'ulik, kecha-kunduz,





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



yomgdr-qorni, yaxshilik- yomonlikni, qushlar, hayvonlar, o‘simliklarga nisbatan qanday munosabatda bodishni bilishlari, tabiatdagi ranglarni tanishlari zarurdir.

Pedagogika nazariyasi va amaliyotiga “ekologik ta’lim”, “ekologik tarbiya”, “ekologik ong”, “ekologik faoliyat”, “ekologik mas’uliyat”, “ekologik e’tiqod”, “ekologik ma’rifat”, “ekologik madaniyat” va boshqa bir qator ekologiyaga oid bulgan atamalar va ular bilan bogdiq tushunchalar kirib keldi. Ekologik ta’lim ekologik ma’rifatning asosiy jihatni bodib, o‘qitish va o‘qish jarayonlarida mavjud ijtimoiy ekologik tajribaning avloddan-avlodga odkazilishidir. Ekologik ta’lim orqali shaxsda ekologik bilim, ko‘nikma va malakalar hosil bodadi. Ekologik tarbiya (tor ma’noda) rivojlanayotgan shaxsda maqsadga muvofiq axloqiy-ekologik fazilatlarni tarkib toptirishni nazarda tutadi va shu orqali shaxsning ekologik xulq-atvor xususiyatlari takomillashib boradi. Ekologik ong - shaxsning amaliy ekologik faoliyati va hatti-harakatini tartibga solib turadi. Ekologik faoliyat esa ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan xatti- harakatlar majmui demakdir. Ekologik dunyoqarashning ajralmas bir qismi bodmish “ekologik mas’uliyat” deganda insonning atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatini tushunamiz. Bunday munosabat insoniyatning, xususan, ayrim odamlarning bilib-bilmay, uzoqni o‘ylamay tabiatga ko‘rsatgan salbiy ta’siri oqibatlarini anglash va bunday ta’sirni bartaraf etish istagi natijasidagina shakllanadi. Ekologik madaniyat - alohida shaxsning ibratli axloqiy-ekologik hatti-harakati boshqalarda zavq-shavq uyg‘ota olishlik holatini ifodalaydi. Bu atama shaxs va jamiyatning atrof-muhitga munosabat darajasini belgilash uchun qodlaniladi.

Bugungi kunda maktabgacha tadim tashkilotlarida amalga oshiriladigan barcha metodik va tadim-tarbiya berish ishining mazmuni, ularni tashkil etish, shakl va metodlarini tanlash qonuniyatlarini belgilash muhim hisoblanadi. Bunda maktabgacha ta’lim tashkiloti turli yosh guruhlarida tabiat bilan tanishtirish xilma- xil shakllarda: mashg’ulotlarda, ekskursiyalarda, kundalik hayotda, kuzatishlarda, suhbatlarda, hamda mehnatda ekologik tarbiyani amalga oshirish zarurdir Bolalarni tabiat bilan tanishtirish mashg’ulotlarida ekologik tarbiyaga oid bilimlarni bolalarning imkoniyati hamda tabiatning xususiyatlarini nazarda tutgan holda shakllantirish imkonini beradi. Tarbiyachi rahbarligida o’tadigan mashg’ulotlarda bolalarda ILK qadam dasturi talablariga muvofiq elementar bilimlar shakllanadi, asosiy bilish jarayonlari va bolalarning qobiliyatlarini ma’lum bir tartibda rivojlantiriladi. Kundalik hayotda kuzatish, o’yin, mehnat vaqtida bolalarning shaxsiy bilimlari yig’ilib boradi. Mashg’ulotlar ularga aniqlash va tizimlashtirish imkonini beradi. Bolalarni mashg’ulotlarda o‘qitish turli metodlarda amalga oshiriladi. Metod mashg’ulot turi, uning asosiy maqsadiga ko’ra tanlanishi muhim. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘tkaziladigan ba’zi mashg’ulotlarda bolalarning boshlang’ich bilimlar shakllantiriladi. Shu maqsadda tarbiyachi kuzatish, rasmlarni ko’rish, badiiy asarlarni o’qish, hikoya, diafilm va kinofilmarni ko’rsatishdan foydalanadi. Boshqa mashg’ulotlarda esa bilimlar kengaytiriladi va chuqurlashtiriladi. Aytib o’tilgan metodlardan tashqari bu mashg’ulotlarda bolalarning tabiatdagi mehnatidan ham foydalaniladi. Uchinchi turdag‘i mashg’ulotlarning asosiy





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



vazifasi — bilimlarni umumlashtirish hamda bir tizimga solishdir. Shuning uchun suhbatlar, didaktik o'yinlar, umumlashtiruvchi kuzatishlardan foydalaniladi. Bolalar egallagan bilimlarini mehnat va o'yinlarda amalda qo'llaydilar. Mashg'ulotlar kichik va o'rta yosh guruhlarda bir oyda 2 martadan, katta guruhlarda esa haftada 1 martadan o'tkaziladi. Ekskursiyalar o'rta guruhdan boshlab tashkil etiladi. Barcha guruhlarda qo'shimcha sifatida maqsadli sayrlar o'tkaziladi. Mashg'ulotning samaraliligi tarbiyachining tayyorgarlik darajasiga bog'liqdir. Tarbiyachi mashg'ulot mavzusini va ahamiyatini belgilab, mavzu bo'yicha tabiatshunoslik bilimlarini to'ldirishi, so'ng mashg'ulot vazifalarini dastur asosida ishlab chiqishi lozim. Bunda tarbiyachi «Ilk qadam» dastur vazifalariga, bolaning qobiliyat darajasiga hamda tevarak-atrofdagi tabiiy muhitga tayanadi. Mazkur mashg'ulot mazmunini tanlashda uning ish tizimidagi o'rni (mashg'ulotda boshlang'ich bilimlarni shakllantirish jarayoni sodir bo'lyaptimi, yoki ular boyitilib bir tizimga solinyaptimi, bilimlarni qo'llash mashq qilinyaptimi va shu kabilalar)ni aniqlash lozim. Bu o'rinda tarbiyachi darsning maqsadi va mazmuniga qarab turli metodlarni qo'llaydi. Tarbiyachi qanday metod va uslublar tanlamasin ulardan kompleks, bir birini to'ldirgan holda foydalanishi, bu asosiy maqsad — o'rganilayotgan tabiat jismlari va hodisalarning bolalar tomonidan qabul qilib olinishini yaxshilashga hamda tabiat haqidagi tushunchalarining to'g'ri shakllanishiga xizmat qilishi kerak. Mashg'ulotda hal etiladigan tarbiyaviy vazifalar tabiatga ijobiylashtirish, ehtiyojkorona, g'amxo'rona, estetik munosabatlarni shakllantirishga yo'llanadi. Mashg'ulotga tayyorlanish hamda uni o'tkazishda uning tuzilishini to'g'ri aniqlash muhimdir. Metodni tanlash ta'limiylar vazifalar xarakteri, tabiiy ob'yeqtning xususiyatlari hamda bolalarning yoshiga bog'liqdir. Masalan, yovvoyi hayvonlar haqidagi bilimni shakllantirishni yaxshisi diafilm, kinofilmlar ko'rsatish orqali, tabiat burchagidagi hayvonlar va o'simliklar bilan tanishishni esa ulami bevosita kuzatish orqali amalga oshirgan ma'qul. Tanlangan metod dastur vazifasining to'liq bajarilishini va bolalarning faol aqliy faoliyatini ta'minlashi lozim. Tarbiyachi mashg'ulot o'tkazishdan oldin bir qancha ko'rgazmali qurollar, yani jonli va jonsiz tabiat jismlari (gerbariyalar yil fasllari, tabiat manzaralari tasvirlangan kalendorlar, toshlar, foydali hasharotlar, o'simliklar va ularning qismlari va boshqalar)ni tayyorlab qo'yadi. Chunki ko'rgazmali qurol bolalarga o'rganilayotgan narsani bir necha sezgi a'zolari bilan qabul qilib olish imkoniyatini beradi, ya'nisi ular narsani ko'ribgina qolmasdan, uning xususiyatini (masalan, tirnab ko'rish, bolg'acha bilan urib ko'rish orqali narsaning mo'rtligini, egish bilan qayishqoqligini, egiluvchanligini va hokazo) sinaydilar. Mashg'ulot so'ngida tarbiyachi bolalarning malaka va ko'nikmalarini, ularning mashg'ulotga munosabatlarini, qiziqishlarini pedagogik jihatdan baholaydi. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagagi bolalarning tadim jarayoniga har tomonlama tayyot bodishi va ularning aqliy rivojlanishi o'quv faoliyatining bir tekis va bosqichma-bosqich egallashinini ta'minlaydi. Bu esa tarbiyachidan mashg'ulotlar vaqtida turli xil metod va vositalarni to'g'ri tanlash lozimligini talab etadi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Grigoryans A.G. Atrofimizdagi olam. Uslubiy qodlanma. -T.: Chodpon 2007 y
2. Meliboyev A.R. Maktabgacha tadimda tarbiyachilarga ekologik ta'lim berishga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari: Toshkent: 2014. www.ziyonet.uz.
3. G.I.Xasanova—Ta’lim jarayonida dasturlashtirilgan o’qitish texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari Jizzax:2020. 420 bet. 223- 225b
4. Sh.Sodiqova Maktabgacha pedagogika.Darslik Toshkent-2012 yil.149-150,bet
5. MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA O’YIN TURLARINING MAZMUNI M Norquziyeva - Maktabgacha ta’lim jurnali, 2021
6. MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARNING MAKTAB TA’LIMIGA AXLOQIY TAYYORGARLIGINING MEZONI M Norquziyeva - Maktabgacha ta’lim jurnali, 2021
7. Maktabgachata’limtashkilotlaritarbiychilariningmediakompetentliginirivo ilantirishmazmuni G Kushakova - Maktabgachata’limjurnali, 2021
8. GulnoraKushakova,_ABU NASR FAROBIY IJODIDA OILADA FARZANDLARNI AHLOQIY TARBIYALASHNING AHAMIYATI HAQIDA ,Arxiv Nauchnbix Publikatsiy JSPI: 2020: Arxiv №45 (science.i-edu.uz, ispi.uz)
9. Usmonova Maxfuz.(2021). OILA VA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTINING O’ZARO HAMKORLIGI SHAKLLARI. Maktabgacha ta’lim jumali, 1(1). Retrieved from <https://presedu.ispi.uz/index.php/presedu/article/view/3063>
10. Usmonova Maxfuz.(2021). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA TA’LIM-TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA TARBIYACHINING O’RNI. Maktabgachata’limjurnali, 1(1). Retrieved from <https://presedu.ispi.uz/index.php/presedu/article/view/2729>
11. Buronova, Sh. (2021). Partnyorstvo s semoyoy, maxallyoy kak usloviie povbisheniya kachestva doshkolnogo obrazovaniya. Maktabgacha ta’lim jurnali.
12. Buranova, Sh. (2020). Maktabgacha ta’lim muassasasi va oilada bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim. Arxiv Nauchnbix Publikatsiy JSPI.
12. Theoretical bases of upbringing of preschool children in the national spirit in the organizations of preschool education S. J. Sodirovich - 2021
13. Xamidova, G. (2021). Maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik histuyg’ularini tarbiyalash orqali san’atni tushunishga o’rgatish. Academic research in educational sciences, 2(5), 1203-1207.
14. Xamidova, G. (2020). Maktabgacha yoshdagi bolalar intellektual qobiliyatlarini interaktiv metodlar orqali rivojlantirish. arxiv nauchnbix publikatsiy ^{js}pL
15. Xalq og’zaki ijodi asosida o’quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash: xalq og’zaki ijodi asosida o’quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash M. Norquziyeva - jurnal doshkolnogo obrazovaniya, 2021